

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova Shoxsanam G’ayrat qizi - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173
23.	Mamatov Baxadir Safaraliyeviç	Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning iqtisodiy mexanizmlari va ustuvor yönalişlari	183
24.	Ruziyev Baxtiyor Salimboyeviç	Özbekiston tijorat banklarining moliyaviy holatini topologik ma’lumotlar tahlili usulida baholaş	193
25.	Bo’riboyeva Zamiraxon Ravshan qizi	Yengil sanoat tarmoqlarida investitsiya loyihalarini moliyalaştiriş: muammolari va ularni hal etiş yöllari	202
26.	Арипов Нодир Салимович	Рақамли трансформация минтақа иқтисодиётини барқарор ривожлантириш омили сифатида	213
27.	Маматов Ахметжон Атажанович	Миллий иқтисодиётни тадқиқ этишнинг илмий-назарий асослари ва уни трансформациялаш омиллари	220
28.	Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi	Janubiy Koreyada tibbiy sug‘urta tizimini moliyalashtirish mexanizmlari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari	229
29.	Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li	Korporativ tuzilmalar tomonidan xalqaro Yevroobligatsiyalar joylashtirish amaliyotining tahlili	235

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

30.	Dehkanova Nargiza Sharifovna	Kimyo sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni baholash mexanizmlarini shakllantirishning konseptual asoslari	242
31.	Xalilova Shoxsanam G‘ayrat qizi	O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasini budjetdan moliyalashtirish holatining tahlili	249
32.	Xamdamov Omonullo Ne’matullayevich	Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari	254

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Xamdamov Omonullo Ne’matullayevich
“Kapital bozori va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi professori, i.f.d.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: hamdamov_omonullo@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-0876-8327

Annotatsiya. *Maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularni kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida “O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJning 2018-2025-yillardagi aktiv va passivlari tarkibi, xususiy kapitali va moliyaviy natijalari dinamikasi tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kapital bozoridagi investitsiyaviy faolligini oshirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sug‘urta kompaniyalari, kapital bozori, moliyaviy barqarorlik, institutsional investorlar, investitsiya portfeli, moliyaviy resurslar, sug‘urta zaxiralari, xususiy kapital, IPO, qimmatli qog‘ozlar, risklarni boshqarish.*

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ

Хамдамов Омонулло Неъматуллаевич
Профессор кафедры «Рынок капитала и финансовые технологии» Ташкентского государственного экономического университета, доктор экономических наук.
E-mail: hamdamov_omonullo@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-0876-8327

Аннотация. *В статье исследовано вопросы обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний и совершенствования их участия на рынке капитала. В рамках исследования проведён анализ структуры активов и пассивов, собственного капитала и динамики финансовых результатов АО «Узбекинвест экспортно-импортная страховая компания» за 2018-2025 годы. На основе результатов анализа разработаны научно-практические предложения по укреплению финансовой устойчивости страховых компаний и повышению их инвестиционной активности на рынке капитала.*

Ключевые слова: *страховые компании, рынок капитала, финансовая устойчивость, институциональные инвесторы, инвестиционный портфель, финансовые ресурсы, страховые резервы, собственный капитал, IPO, ценные бумаги, управление рисками.*

WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE COMPANIES

Khamdamov Omonullo Nematullaevich
Professor at the Department of Capital Markets and Financial Technologies, Tashkent State University of Economics, Doctor of Science
E-mail: hamdamov_omonullo@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-0876-8327

Abstract.*This article examines the issues of ensuring the financial stability of insurance companies and improving their participation in capital markets. The study analyzes the structure of assets and liabilities, equity capital, and the dynamics of financial performance of «Uzbekinvest Export-Import Insurance Company» JSC during 2018-2025. Based on the findings, scientific and practical recommendations have been developed to strengthen the financial stability of insurance companies and enhance their investment activity in capital markets.*

Keywords: *insurance companies, capital market, financial stability, institutional investors, investment portfolio, financial resources, insurance reserves, equity capital, IPO, securities, risk management.*

Kirish

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda jahon moliya bozoridagi o‘zgarishlar va geosiyosiy noaniqliklarning ortishi sug‘urta tashkilotlarining investitsiyaviy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish bilan birga kapital bozori instrumentlaridan samarali foydalanish taqozo etmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida sug‘urta sektorining kapital bozoridagi ishtiroki moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, uzoq muddatli investitsion resurslarni safarbar etish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashning muhim instrumenti sifatida shakllangan. Sug‘urta kompaniyalari institutsional investor sifatida kapital bozorida faol ishtirok etib, davlat va korporativ obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali iqtisodiyotga qo‘shimcha sarmoyalar kiritishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish va ushbu sektor orqali uzoq muddatli investitsiyaviy resurslarni safarbar etishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga ulgurdi. Mazkur jarayonda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyaviy instrumentlar va kapital bozor mexanizmidan foydalanish orqali iqtisodiyotdagi moliyaviy barqarorlik va kapital bozorining rivojlanish dinamikasini optimallashtirish muhim strategik vazifalar sifatida belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [1] qabul qilinishi bilan mamlakatimizda sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning kapitallashuv darajasini oshirish, xalqaro sug‘urta tamoyillari asosida kompaniyalar faoliyatini tartibga solish asoslari yanada takomillashtirildi. Mazkur qarorda sug‘urtalovchilarning ustav kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablarni tabaqalashtirish, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, prudensial nazorat mexanizmini takomillashtirish va sug‘urta xizmatlari iste’molchilari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu islohotlar sug‘urta kompaniyalarining institutsional investor sifatidagi salohiyatini oshirish, ularning kapital bozoridagi investitsion faolligini kengaytirish, moliyaviy resurslarni samarali joylashtirish va investitsiya portfelini diversifikatsiyalashga doir ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Muallif tomonidan ijro organi rahbarlari va mansabdor shaxslarning javobgarligini sug‘urtalash (D&O) va moliyaviy innovatsiyalarning kompaniya dinamik moslashuvchanligiga ta’sirini tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan. [2]. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirish va risklarni sug‘urtalash mexanizmini takomillashtirish bilan bir qatorda, sug‘urta tashkilotlarining o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligini

ta’minlab borish zarur Olimlar sug‘urta kompaniyalarida risklarni boshqarish amaliyotining operatsion samaradorlikka ta’sirini tadqiq etganlar. Mualliflar 2012-2021-yillarda 744 ta sug‘urta kompaniyasi ma’lumotlari asosida DEA (Benefit-of-the-Doubt) modeli yordamida kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik va to‘lov qobiliyatini birlashtiruvchi kompozit risk-menejment indeksini (RMI) ishlab chiqqanlar. Tadqiqotda to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichi operatsion samaradorlikka ijobiy, qolgan komponentlar esa salbiy statistik bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan [3]. Olimlar tomonidan sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, iste’molchilarning texnologik tayyorgarligi va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq etilgan. Mualliflar Hindistonda 19 nafar iste’molchi va 10 nafar sug‘urta sohasi vakili bilan o‘tkazilgan intervyular asosida raqamli sug‘urta xizmatlaridan foydalanishni rag‘batlantiruvchi omillar va mavjud to‘siqlarni aniqlaganlar. Tadqiqot natijasida raqamli xizmatlarni qabul qilishga ta’sir etuvchi omillarni ifodalovchi konseptual model taklif etilgan [4]. Mualliflar pensiya jamg‘armalari va sug‘urta kompaniyalarining resurslar sohasiga investitsiyalar yo‘naltirish imkoniyatlari va barqaror iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirishdagi rolini tadqiq etganlar. Tadqiqot sug‘urta tashkilotlarining institutsional investor sifatidagi ahamiyati va uzoq muddatli investitsiya resurslarini safarbar etish masalalarini o‘rganishga qaratilgan [5]. Mualliflar sug‘urta biznesining ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli va sug‘urta risklarini kapital bozori instrumentlari orqali boshqarish imkoniyatlarini tadqiq etganlar. Olimlar pandemiya risklarini sekyuritizatsiyalash va sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga asoslangan innovatsion moliyaviy mexanizmni taklif etganlar. Ushbu mexanizm sug‘urta risklarini investorlar o‘rtasida taqsimlash va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qilishi asoslangan [6].

Sug‘urta kompaniyasi tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish sug‘urta, investitsiya va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi. Faoliyatning ushbu yo‘nalishlaridagi moliyaviy resurslar o‘zaro dinamik ravishda bog‘liq bo‘lib, ularning harakati kompaniya mablag‘larining aylanishini aks ettiradi [7]. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kapital yetarliligi, to‘lov qobiliyati, sug‘urta zaxiralari, investitsiya portfeli rentabelligi va likvidlilik ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda kompleks baholash zarur. Bunda sug‘urta majburiyatlari, aktivlar tarkibini muvofiqlashtirish, ehtimoliy sug‘urta yo‘qotishlarini prognozlash va riskka asoslangan kapital boshqaruvi mexanizmini rivojlantirish orqali sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [8]. Sug‘urta kompaniyalari ichki muhit omillari ularning moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Xususan, anderrayting siyosati, risklarni boshqarish tizimi, qayta sug‘urta strategiyasi, investisiya faoliyati, likvidlikni boshqarish va debitorlik qarzdorligini nazorat qilish kabi omillar kompaniyaning moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, sug‘urta rezervlarini shakllantirishdagi xatoliklar yoki noto‘g‘ri baholashlar kompaniyaning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin [9].

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ta’kidlash kerakki, sug‘urta kompaniyalari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni minimallashtirish bilan birga, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional investor sifatida faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirishda riskka asoslangan boshqaruv va moliyaviy resurslarni jalb qilishning zamonaviy mexanizmini o‘zaro muvofiqlashtirish orqali ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. “O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJning 2018-2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, sug‘urta zaxiralari va moliyaviy natijalar dinamikasi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi ishtirokining rivojlanib borishi ularning investitsiya faoliyatida moliyaviy risklarning ahamiyatini sezilarli darajada oshirayotganligini qayd etish mumkin. Xususan, bu masalada oxirgi o‘n-yillik davomida sug‘urta kompaniyalari faoliyatida sug‘urta bilan bog‘liq moliyaviy risklarni baholash amaliyotini takomillashtirish, aktuar hisob-kitoblarni rivojlantirish, risk-menejment mexanizmini samarali tashkil etish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kapital bozoridagi investitsiya faoliyatini xavfsiz va samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi-yillarda sug‘urta kompaniyalarining investitsiya portfellarida qimmatli qog‘ozlar, xususan, davlat va korporativ obligatsiyalar ulushining ortib borishi aktuar hisob-kitoblarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishini taqozo etmoqda. Chunki sug‘urta zaxiralari hajmining oshishi va sug‘urta majburiyatlarining uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lishi aktivlar va majburiyatlar muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash zaruratini oshiradi. Bu esa aktuar modellashtirishda foiz stavkalari dinamikasi, inflyatsiya darajasi va bozor kon’yunkturasi kabi omillarni kompleks hisobga olishni talab etadi.

Ta’kidlash kerakki, keyingi-yillarda Toshkent RFBda institutsional investorlar tomonidan birlamchi va ikkilamchi bozordagi faolligini ortib borishi umumiy savdolar hajmining ijobiy o‘zgarishiga ta’sir qilmoqda. Xususan, 2023-yil davomida “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo maydonchalarida 3 ta emitentning qimmatli qog‘ozlarini birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Sug‘urta kompaniyalari orasida “O‘zbekinvest” AJning /UZINP/ imtiyozli aksiyalari bilan IPO doirasida 247 ta arizalar yig‘ilib, talabnomalar bo‘yicha so‘ralgan mablag‘lar miqdori 18,13 mlrd so‘mga yetdi. Shundan jami 14,11 mlrd so‘mlik 100 ta ariza muvaffaqiyatli bajarildi. Aytish joizki, muomaladagi aksiyalarning 70,27 foizi institutsional investorlarga, qolgan 29,73 foizi chakana investorlarga taqsimlangan.

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi bugungi kunda Toshkent RFBda listing muvaffaqiyatli o‘tgan bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozorining faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Kompaniya Toshkent RFB listingidan ro‘yhatdan o‘tganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, biroq qisqa davr mobaynida qimmatli qog‘ozlar savdolari borasida yetakchi kompaniyalardan biriga aylanishga ulgurdi. Jamiyat qimmatli qog‘ozlar bozorida faol ishtirok etib, sug‘urta sektori kapitalining korporativ bozorga integratsiyasini ta’minlovchi muhim institut sifatida faoliyat yuritayotganini alohida qayd etish mumkin.

“O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining aktivlari tarkibi va hajmidagi o‘zgarishlar 2018-2025-yillar davomida kompaniyani sug‘urta bozoridagi o‘rni va davlat tomonidan eksportni qo‘llab-quvvatlash siyosati bilan uzviy ravishda shakllangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tahlil qilinayotgan davrda jamiyat aktivlari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, sug‘urta xizmatlari hajmining kengayishi va institutsional rivojlanish bilan izohlash mumkin. Tahlil qilinayotgan davrda jamiyatning uzoq muddatli aktivlari hajmi 2018-yilda 503,08 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yakunlariga kelib ushbu ko‘rsatkich 860,6 mlrd. so‘mgacha oshgan (1-jadval)

“O‘zbekinvest” aksiyadorlik jamiyatining passivlari tarkibi jamiyat moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2018-2025-yillar davomida passivlar tarkibida xususiy kapitalning ustuvorligi saqlanib qolgan bo‘lib, bu holat jamiyat faoliyatining nisbatan past moliyaviy risklar sharoitida olib borilayotganidan dalolat beradi, deb hisoblaymiz. Xususan, tahlil qilinayotgan davrda jamiyatning xususiy kapitali barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lib, 2018-yilda 713,06 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 1179,9 mlrd. so‘mgacha oshgan. Xususiy kapital hajmining o‘sishi, asosan, sof foydaning ma’lum qismi taqsimlanmasdan jamiyat ixtiyorida qoldirilishi, sug‘urta zaxiralari va zaxira fondlarining shakllantirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayon jamiyatning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash va uzoq muddatli barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatini aks ettiradi. Ustav kapitali tahlil qilinayotgan

davrda nisbatan barqaror ko’rinishga ega bo‘lib, 2021-yildan boshlab 282,2 mlrd. so‘m darajasida saqlanib qolgan. Ustav kapitalining o‘zgarmasligi jamiyatning faoliyati kengayib borayotgan bo‘lsa-da, asosiy o‘sish ichki moliyaviy manbalar, ya’ni foyda va zaxiralar hisobiga ta’minlanayotganini ko‘rsatadi. Zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi esa moliyaviy xavfsizlik “yostiqchasi” shakllantirilayotganidan dalolat beradi.

1-jadval

“O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati aktiv va passivlarining dinamikasi (mlrd. so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
1.	Uzoq muddatli aktivlar	503,08	598,65	600,45	600,1	604,94	606,63	618,38	860,6
2.	Asosiy vositalar	9,13	28,72	31,5	35,9	36,09	38,67	38,89	54,1
3.	Uzoq muddatli investitsiyalar	492,3	567,4	568,16	562,92	566,18	562,73	572,41	795,7
4.	jumladan: qimmatli qog‘ozlar	475,5	549,4	549,4	542,3	542,33	538,88	545,93	758,8
5.	Kapital qo‘yilmalar	0,563	1,75	-	-	0,130	-	-	-
6.	Joriy aktivlar	310,9	366,4	464,2	557,3	1083,3	1418,4	1681,3	2336,0
7.	TMZ	1,3	2,1	1,98	2,45	2,3	1,94	1,47	2,0
8.	Debitorlik qarzlari	18,9	15,76	94,04	139,5	545,4	642,5	835,4	1161,2
9.	Pul mablag‘lari	5,1	16,8	45,8	9,61	14,1	7,4	19,07	26,5
10.	Qisqa muddatli investitsiyalar	285,3	331,5	322,04	404,4	519,7	764,2	823,3	1144,4
11.	*Jami aktiv*	*813,98*	*965,05*	*1064,65*	*1157,4*	*1688,24*	*2025,03*	*2299,68*	*3196,41*
12.	Ustav kapitali	3,45	3,45	282,2	282,2	282,2	282,2	296,3	312,0
13.	Qo‘shilgan kapital	225,03	255,4	-	-	-	-	-	-
14.	Rezerv kapitali	9,65	21,03	26,01	25,08	32,08	30,01	30,31	42,1
15.	Taqsimlanmagan foyda	25,8	37,2	40,12	45,26	46,81	63,46	45,19	62,8
16.	Maqsadli tushumlari	449,1	508,7	476,3	476,3	476,3	476,3	476,3	662,1
17.	Jami xususiy kapital	713,06	825,9	824,66	828,87	837,42	852,1	848,14	1179,9
18.	Sug‘urta zaxiralari	87,2	131,09	203,64	292,62	517,41	928,1	1010,56	1079,0
19.	Uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-	-	-	-	-
20.	Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar	13,7	8,06	36,42	35,97	333,4	244,94	441,03	613,0
21.	Jami majburiyatlar	13,7	8,06	36,42	35,97	333,4	244,94	441,03	613,0
22.	*Jami passiv*	*813,98*	*965,05*	*1064,65*	*1157,4*	*1688,24*	*2025,03*	*2299,68*	*3196,41*

*https://uzbekinvest.uz/analytics-statistics - ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Jamiyat passivlarida majburiyatlar hajmi ham sezilarli darajada oshganligini alohida qayd etish kerak. Jumladan, jami majburiyatlar 2018-yildagi 13,7 mlrd. so‘mdan 2025-yilga kelib 613,0 mlrd. so‘mgacha yetgan. Bizningcha, majburiyatlar hajmini keskin o‘sishi, birinchi navbatda, sug‘urta faoliyati kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar, sug‘urta zaxiralari va qayta sug‘urtalash bilan bog‘liq to‘lov majburiyatlarining ortishi bilan izohlanadi. Mazkur holat jamiyat faoliyat ko‘lami kengayganini ko‘rsatsa-da, majburiyatlarning xususiy kapitalga nisbatan mutanosibligi moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Qisqa muddatli majburiyatlar tarkibida joriy majburiyatlarning ulushi yuqori bo‘lib, ularning hajmi sug‘urta to‘lovlari, qayta sug‘urtalash hisob-kitoblari va boshqa operatsion majburiyatlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Shu bilan birga, jamiyatda uzoq muddatli majburiyatlarning deyarli mavjud emasligi yoki juda past darajada bo‘lishi tashqi qarzga bog‘liqlik darajasi past ekani va moliyaviy risklar darajasini cheklanganligini namoyon etadi. Moliyaviy barqarorlikni baholash nuqtayi nazaridan, xususiy kapitalning jami passivlardagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolganligi ijobiy holat sifatida baholanadi. Bu holat jamiyatning “moliyaviy mustaqillik” darajasi yuqori ekanini, majburiyatlar hisobiga haddan tashqari moliyalashtirishga yo‘l qo‘yilmagani va sug‘urta bozoridagi salbiy o‘zgarishlarga nisbatan barqaror ekanligini anglatadi. Ayniqsa sug‘urta kompaniyalari uchun moliyaviy barqarorlikning muhim mezoni bo‘lgan to‘lovga qobillik va zaxiralar bilan ta’minlanganlik darajasi “O‘zbekinvest” aksiyadorlik jamiyatida “yetarli” darajada shakllangan deya olamiz. 2018-2025-yillar davomida “O‘zbekinvest” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi kompaniya faoliyatining rivojlanib borayotgani, sug‘urta

xizmatlari hajmi va moliyaviy natijalarni ijobiy tendensiyalarini ko‘rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan daromadlar 2018-yildagi 76,6 mlrd. so‘mdan 2025-yilda 520,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan (2-jadval).

Ko‘rsatkichning barqaror o‘sishi O‘zbekiston sug‘urta bozorida, xususan eksport-import operatsiyalarini sug‘urtalash segmentida talabning ortishi va “O‘zbekinvest” aksiyadorlik jamiyatining sug‘urta mahsulotlari turlarini kengaytirish bo‘yicha olib borgan faoliyati bilan izohlash mumkin. Tahlil qilinayotgan davrda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan sof tushumlar ham ijobiy dinamikani namoyon etib, 2018-yildagi 85,07 mlrd. so‘mdan 2025-yilda 535,02 mlrd. so‘mgacha oshgan. Sof tushumlar hajmining daromadlarga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi kompaniyada sug‘urta operatsiyalarini tashkil etish samaradorligining oshgani, qayta sug‘urtalash mexanizmidan oqilona foydalanilayotganidan dalolat beradi.

2-jadval

“O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi (mlrd. so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
1.	Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar	76,6	80,9	130,8	219,8	339,6	458,9	497,8	520,1
2.	Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan sof tushum	85,07	86,6	144,9	236,9	347,4	473,9	515,05	535,02
3.	Ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlarining tannarxi	67,7	80,4	151,2	228,3	310,6	438,5	466,6	500,7
4.	Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan yalpi foyda (zarar)	17,3	6,2	6,3	8,5	36,7	35,3	48,4	61,8
5.	Davr xarajatlari	41,5	38,01	40,4	41,07	61,9	91,2	110,8	132,6
6.	Yalpi foyda marjasi (%)	20,3	7,1	4,3	17,3	17,8	7,4	9,3	11,5
7.	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	87,2	116,2	75,8	53,5	94,01	199,5	180,2	230,1
8.	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha qilingan xarajatlar	55,8	73,8	12,1	14,7	41,3	95,8	69,5	155,8
9.	Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda	91,7	11,46	17,8	7,8	31,5	50,5	54,4	70,8
10.	Soliq to‘lagunga qadar foyda	91,7	11,46	17,8	7,8	31,5	50,5	54,4	70,8
11.	Sof foyda	9,08	11,41	14,3	5,1	25,8	42,01	44,6	59,7
12.	Sof foyda marjasi (%)	10,6	13,17	9,86	2,15	7,42	8,8	8,6	12,9

*https://uzbekinvest.uz/analytics-statistics - ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bu jarayonda O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqobat muhitining rivojlanishi va moliyaviy intizom talablarining qat’iylashtirilishi ham muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Sug‘urta xizmatlari tannarxi ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2018-2025-yillar davomida tannarx hajmi umumiy daromadlar bilan mutanosib ravishda oshib borgan. Xususan, 2018-yilda 67,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan tannarx 2025-yilda 500,7 mlrd. so‘mgacha yetgan. Tannarxning oshishi sug‘urta majburiyatlari hajmining kengayishi, sug‘urta hodisalari bo‘yicha to‘lovlarning ko‘payishi va qayta sug‘urtalash xarajatlarining ortishi bilan izohlash mumkin. Shunga qaramay, kompaniya tomonidan xarajatlarni nazorat qilish va risklarni diversifikatsiya qilish orqali tannarxning daromadlarga nisbatan keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan yalpi foyda tahlil qilinayotgan davrda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etganligini alohida qayd etish kerak. Agar 2018-yilda yalpi foyda hajmi 17,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 61,8 mlrd. so‘mga yetgan. Yalpi foydaning o‘sishi sug‘urta portfelining rentabellik darajasini oshganligi, risklarni baholash mexanizmining takomillashgani va sug‘urta tariflarini bozor talablariga moslashtirilgani

bilan bog‘liq, deb hisoblaymiz.

Xulosa

Sug‘urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bevosita sug‘urta portfelining diversifikatsiyalashuv darajasi, innovatsion sug‘urta mahsulotlari ulushi, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi va sug‘urta xizmatlari sifatini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, sug‘urta bozorida raqobatning kuchayishi, mijozlar ehtiyojlarining o‘zgarishi va kapital bozoridagi tavakkalchiliklarning ortib borishi sug‘urta kompaniyalaridan innovatsion yondashuvlarga asoslangan barqaror biznes modellarini shakllantirishni talab etmoqda.

Sug‘urta kompaniyalari amaliyotida moliyaviy barqarorlik va bozor samaradorligini alohida baholash kompaniyaning kapital bozoridagi real salohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Shuning uchun, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy samaradorlik va bozor-investitsion faollik ko‘rsatkichlarini yagona integrallashgan algoritm asosida baholash, sug‘urta kompaniyalarining kuchli va zaif (SWOT tahlili asosida) tomonlarini aniqlash, investitsiya siyosatini maqbullashtirish, risklarni samarali boshqarish bo‘yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

“O‘zbekinvest” AJ nafaqat sug‘urta bozorining yirik ishtirokchisi, balki IPO orqali kapital bozoriga chiqish orqali korporativ boshqaruv, oshkoralik va hisobdorlik standartlarini joriy etayotgan sug‘urta institutlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon sug‘urta kompaniyalarining fond bozorida passiv investor emas, balki faol va institutsional ishtirokchi sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi. 2023-2025-yillarda sug‘urta kompaniyalarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtiroki sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. IPO va SPO jarayonlarining faollashuvi, chakana investorlar ulushining ortishi sug‘urta sektorining kapital bozoriga kengroq integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Ushbu holat sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, milliy fond bozorining barqaror va institutsional rivojlanishida sug‘urta sektorining strategik rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Aytish kerakki, 2018-2025-yillarda “O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi kompaniya faoliyatining kengayib borayotganini, sug‘urta xizmatlari va moliyaviy faoliyatdan olinayotgan daromadlar o‘rtasida muvozanat shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlar O‘zbekiston sug‘urta bozorida olib borilayotgan islohotlar, eksportni rag‘batlantirish siyosati, “O‘zbekinvest” aksiyadorlik jamiyatining strategik rivojlanish yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, kompaniyaning milliy sug‘urta bozoridagi yetakchi institutsional mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Lan S., Yang L. Directors and officers liability insurance placement, financial innovation, and the dynamic capabilities of listed companies // International Review of Financial Analysis. – 2026. – Vol. 110. – Article 104873. – DOI: 10.1016/j.irfa.2025.104873.

3. Petrović D., Dasilas A., Karanović G. Insurance companies risk-adjusted efficiency using a composite risk management index // Review of Accounting and Finance. – 2026. – Vol. 25, No. 1. – P. 52–74. – DOI: 10.1108/RAF-11-2024-0492.

4. Nagarajan S., Duggal E. Insurance, digitization and sustainable development: the road ahead // Qualitative Research in Financial Markets. – 2026. – Vol. 18, No. 4. – P. 924–945. – DOI: 10.1108/QRFM-11-2024-0329.

5. Liu B., Sun H., Xiao S. Potential of pension funds and insurance companies for investment in resources: Policies for sustainable transition // Resources Policy. – 2024. – Vol. 89. – Article 104618. – DOI: 10.1016/j.resourpol.2023.104618.

6. D’Amato V., Di Lorenzo E., Piscopo G., Sibillo M., Trotta A. Insurance business and social sustainability: A proposal // Socio-Economic Planning Sciences. – 2024. – Vol. 93. – Article 101880. – DOI: 10.1016/j.seps.2024.101880.

7. Babayeva N. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion salohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar//Scientific Journal of “International Finance and accounting” Issue 2, April 2023.

8. Hagberdiyev B. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo‘llari // Green Economy and Development. – 2025. – № 3(8). – DOI: 10.5281/zenodo.16927377.

9. Nosirov J. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizlik darajasini baholash// Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2026, 6(04), 150-157.

10. Burxanov A.U., Xamdamov O.N. Moliyaviy menejment Darslik - T: - 2020 yil 468 bet.